

XORAZM SHEVALARIDAGI MAQOLLARNING SINTAKTIK XUSUSIYATLARI

Davletova Qizlargul Rustam qizi
UrDU, Lingvistika:o 'zbek tili, II kurs magistrant

Annotatsiya: Maqolada Xorazm shevasidagi maqollarning sintaktik xususiyatlari tahlil qilinadi. Xorazm maqollaridagi mavjud sintaktik xususiyatlarni o‘rganish orqali shevaning o‘ziga xos grammatik tuzilmalari, shuningdek, xalq madaniyati va dunyoqarashini aks ettiruvchi jihatlari ko‘rsatilgan. Maqolada Xorazm shevasining til tizimi va uning xalq og‘zaki ijodiga ta’siri tahlil etiladi. Ushbu ish Xorazm shevasining tilshunoslikdagi ahamiyatini oolib beradi hamda til va madaniyat o‘rtasidagi aloqani yoritadi.

Kalit so‘zlar: sintaktik xususiyat, maqol, sheva, gap bo‘lalari, til, madaniyat.

Xorazm shevasi O‘zbekistonda eng qadimiy va o‘ziga xos shevalardan biri bo‘lib, u o‘zining grammatik, leksik va sintaktik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Xorazm viloyatining turli hududlarida yashovchi aholining kundalik hayotida, ayniqsa, og‘zaki nutqida bu shevaning muhim o‘rni mavjud. Maqollar, xalq og‘zaki ijodining ajralmas qismi sifatida, nafaqat tildagi o‘ziga xosliklarni, balki xalqning dunyoqarashi, ma’naviy qadriyatlari, ijtimoiy hayoti va tarixiy tajribasini ham aks ettiradi. Xorazm shevasining maqollarida sintaktik strukturalarning ko‘pligi, ularning og‘zaki nutqda tez-tez ishlatilishi va xalq orasida keng tarqalganligi alohida e’tiborga molikdir Ushbu maqolaning asosiy maqsadi Xorazm shevasidagi maqollarning sintaktik xususiyatlarini tahlil qilish orqali Xorazm maqollaridagi o‘ziga xos jihatlarni ko‘rsatish, shuningdek, shevaning xalq og‘zaki ijodi va madaniyatidagi rolini yoritishdir.

Xorazm shevasidagi maqollar ko‘pincha o‘ziga xos sintaktik xususiyatlarga ega bo‘lib, ularda egalar, kesimlar, to‘ldiruvchilar va aniqlovchilarining ishlatilishi xalqning dunyoqarashini, urf-odatlarini va qadriyatlarini aks ettiradi. Maqollar xalqning, hayotiy tajribasi, orzu-istiklari va axloqiy qarashlarini ifoda etadi. Maqollar nafaqat tilshunoslik nuqtai nazaridan, balki madaniyat va tarixiy rivojlanishning tili sifatida ham muhimdir. Xorazm maqollari bu shevaning til tizimini va uning ijtimoiy funksiyalarini chuqurroq o‘rganish imkonini beradi. Xulosa qilib aytganda, Xorazm shevasi nafaqat tilshunoslikda, balki o‘zbek xalqining madaniy merosi sifatida ham alohida o‘ringa ega. Xorazm maqollari, o‘zining sintaktik, leksik va semantik xususiyatlari bilan, shevaning rivojlanishini, xalqning axloqiy qadriyatlarini, hayot tajribasini va madaniy tafakkurini yoritishda muhim vosita hisoblanadi. Shunday qilib,

Xorazm shevasi va uning maqollari, til va madaniyat o‘rtasidagi aloqani o‘rganishda katta ilmiy ahamiyatga ega.

Shevalar jonli muloqot shakli bo‘lgani uchun, shevalarda qo‘llaniladigan maqollarda gap bo‘laklarining odatiy tartibi, ya’ni adabiy tilning normalariga mos kelmasligi kuzatiladi. Ko‘rib chiqayotganimiz Xorazm shevalaridagi maqollarda gap bo‘laklari tartibining o‘zgarishini quyidagi misollarda ko‘rish mumkin:

Üyiñni serganda bnda, Siplik qoyma ädändä.

Özi siymayan qal’aya qırq tūjäsì bilan girdi qazaq.

Xorazm shevalarida maqollarning sodda va qo‘shma gap shakllari mavjud:

a)sodda gap: *Bol tutgan barmaqiñi yalabdi.*

b)qo‘shma gap: *Saman bïrvanik bolsam, samanxana oziñk bosin.*

Bu misollar, Xorazm shevalarining o‘ziga xosligini, tilning jonli va tabiiy holatini aks ettiradi. Gap bo‘laklarining tartibidagi o‘zgarishlar shevaning xususiyatlarini, uning ijtimoiy va madaniy kontekstidagi o‘rnini ko‘rsatadi.

Maqollar butun jamiyatga nisbatan pand-nasihat shaklida murojaat qilgani sababli ularda asosan gapning egasi umumlashgan shakli ko‘p uchraydi. Masalan: *Yomon bïlän yatmä, Ertäj turib aytmä. Ačni sollätmä, doqni därpätmä.*

Xorazm maqollari tarkibida egalar aksariyat hollarda ot, sifat yoki sifatdoshlar bilan ifodalanadi:

a)ot bilan: *It itä bujirdi, it qujriyina . Molla bïlgänini oqid. Jeb dojmagan yalabam dojmid kabilar;*

b) sifat bilan: *Hunärlı xar bolmäs;*

d)sifatdosh bilan: *Jeb dojmagan yalabam dojmid. Ittan boyan qurvanlıqqa yaramidi*

Xorazm shevasidagi maqollar sintaksisi uchun egalarning butun bir so‘z birikmasi bilan ifodalanishi ham xarakterlidir. Masalan: *Qajinli gälin qarqara gälin, Qajinsiz gälin masxara gälin; Čovit odam bitinä qan bärmas kabilar.*

Kesim gapni shakllantiruvchi asosiy bo‘lak hisoblanadi. Xorazm shevalarida qo‘llaniluvchi maqollar tarkibida kesimning ifodalanishiga ko‘ra fe’l kesim turi nisbatan ko‘proq qo‘llaniladi:

a)sof fe’l shakli bilan: *Qojsi qo ‘yšidan ertä turishni orgänädi. Ešäk ešäkdan qolishsa, quloq burnini tishlid.*

b)ravishdoshning -guncha qo‘shimchasi bilan yasalgan kesim: *Männän getincä, egäsinä jetincä kabi*

Ot kesimning ot, sifat va modal so‘z bilan ifodalangan ko‘rinislari uchraydi:

a) ot bilan: *Källa išlämäsä gävdä äzabda*

b)sifat bilan: *Mimon atangnan ulli. Iči qaranı juzi gara*

d)modal so‘z bilan: *Ongi jo ‘qa farqi jo ‘q.*

Maqol-gaplar tarkibidagi kesimlarning ma’lum qismi tarkibli kesimlardir: *Jaxshi gap-juräk yangi, jaman – gap juräk dagi.*

Xorazm maqollari tili sintaksisi uchun to‘ldiruvchilarning quyidagi ko‘rinishlari uchraydi:

- ko‘makchilan yordamida shakllangan to‘ldiruvchilar: *Jaman bìlan jätma, Ertäj turib äjtma; Qanni doqnì qanni ač bìlan nä iši bar;*
- kelishik qo‘srimchalari yordamida shakllangan to‘ldiruvchilar: *Gäp egäsini tapadì(tushum kelishigi); Itä sarjay jaraşmas (jo‘nalish kelishigi) . Ešäk ešäkdan qolishsa, quloq burninì tişlidì(chiqish kelishigi).*

Maqollarda sifatlovchi aniqlovchilar quyidagicha ifodalanadi:

- sifat bilan:*Došik mìnjiq yerdä qamidi kabi;*
- ravish bilan: *Kop gulgän, kop yiylidi.*
- son bilan: *Özi siymayan qal’aya qırq tūjäsì bilan girdi qazaq.*
- sifatdosh bilan: *Bäjräygän gälinnän, baqraygan qızdan, torda o ‘tìrgan lo ‘tì jaxši.*

Maqollar tili sintaksisining xarakterli xususiyatlaridan yana biri shundaki, bunday gaplarda izohlovchilar qo‘llanmaydi. Buning sababini R.Sarsenbayev va X.Abdurahmonovlar quyidagicha ko‘rsatishadi. Maqollarda aytيلوتجان predmet yoki hodisa nomini boshqa nom bilan qayd qilib o‘tirishga hojat bo‘lmagani, atoqli otlarning deyarli qo‘llanmasligi, mashg‘ulot, kasb-mutaxassislik bilan bog‘langan so‘zlarning yo‘qligi, kishining millati, laqab-taxallusini ifodalovchi so‘zlarning umuman qo‘llanmasligi tufayli izohlovchilar maqollar tili uchun xarakterli emas¹.

Maqollar mazmuni ko‘proq shaxs, uning belgisi, harakati bilan bog‘liq. Shunga ko‘ra maqollarda ega, kesim, aniqlovchi va to‘ldiruvchilar rang-barang ko‘rinishda ifodalanadi. Biroq ish-harakatning bajarilish o‘rni, payti, sababi, daraja-miqdorini ifodalovchi so‘zlar maqollar tili uchun har doim ham xos emas. Shunga ko‘ra maqollarda holningxilma-xil ko‘rinishlari kam uchraydi: *Ulli ešäkarva nerdän jürsä, kiçji ešäkarva šordän jürädi(o ‘rin holi); Ojnab ayttim, ojimdaqını ayttim; O‘jnab gäpläsängäm, o ‘jlab gäplä (ravish holi).*

Xorazm shevasining maqollari xalq tilining boyligini va uning ijtimoiy, madaniy, ma’naviy ahamiyatini ochib beradi. Xorazm shevasidagi maqollar ko‘pincha o‘ziga xos sintaktik xususiyatlarga ega bo‘lib, ularda egalar, kesimlar, to‘ldiruvchilar va aniqlovchilarning ishlatilishi xalqning dunyoqarashini, urf-odatlarini va qadriyatlarini aks ettiradi. Xorazm shevasi tilining o‘ziga xosligi, asosan, uning sintaksisidagi noan'anaviy tuzilmalar orqali o‘z ifodasini topadi.. Tahlil qilishda ko‘rganimizdek, maqollar nafaqat tilshunoslik nuqtai nazaridan, balki madaniyat va tarixiy rivojlanishning tili sifatida ham muhimdir. Xorazm maqollari bu shevaning til tizimini va uning ijtimoiy funksiyalarini chuqurroq o‘rganish imkonini beradi. Xulosa

¹ Бу ҳақда қаранг: Сарсенбаев Р. Лексико-стилистические особенности казахских пословиц и поговорок. Автореф. дис... канд. филол. наук. – Алма-Ата, 1961. – С. 12-13; Абдурахманов Х. Синтаксические особенности узбекских народных пословиц. Автореф. дис... канд. филол. наук. – Ташкент, 1964. – С. 14-15.

qilib aytganda, Xorazm maqollari, o‘zining sintaktik, leksik va semantik xususiyatlari orqali shevaning rivojlanishini hamda xalqning axloqiy qadriyatlari va madaniy tafakkurini yoritadi. Shunday qilib, Xorazm shevasi va uning maqollari, til va madaniyat o‘rtasidagi aloqani o‘rganishda katta ilmiy ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdullayev F. O‘zbek tilining o‘g‘uz lahjasি. – Toshkent, “ Fan”, 1978.
2. Norbayeva Sh. Sa’dullayeva N. Atabayeva M. Xorazm shevalari maqol va iboralari qisqacha lug‘ati – Urganch 2022.
3. Абдуллаев Ф. Ўзбек тилининг Хоразм шевалари. Т.,I961.
4. Абдурахманов Х. Синтаксические особенности узбекских народных пословиц. Автореф. дис... канд филол. наук. – Ташкент, 1964.
5. Сарсенбаев Р. Лексико-стилистические особенности казахских пословиц и поговорок. Автореф. дис... канд. филол. наук. – Алма-Ата, 1961.